

SO‘ZLASHUV NUTQINING MULOQOT SHAKLLARI ORASIDA TUTGAN O‘RNI

Madraximov Tulibay Abdukarimovich,
(PhD) f.f.n.dotsent
O‘zDJTU

Annotatsiya. *Maqola ingliz va o‘zbek tillari so‘zlashuv nutqida ishlatiladigan nazariyalarga bag‘ishlangan. Asosiy e‘tibor berilayotgan nazariyalarning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *emotsionallik, grammatik qurilma, sintaktik birikma, substandardt frazeologik qatlam.*

So‘zlashuv nutqining asosiy belgilaridan biri bu - emotsionallikning yuqoriligidir. Emotsionallik salbiy yoki ijobiy bo‘lishidan qat’iy nazar, vaziyatlarda turlicha kuzatiladi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida emotsionallik darajasi bir xil bo‘lishi mumkin, ammo bu muhim emas. Agar so‘zlashuv o‘zaro bir-birini yaxshi biladigan, so‘zlashuv tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar orasida kechayotgan bo‘lsa, yanada xususiyoq, umumiy so‘z va iboralar, tanish grammatik qurilmalar, deyarli bir xil sintaktik birikmalardan iborat bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchi bir-birini to‘liq tushunishi mumkin.

Tilning kommunikativ aspektini o‘rganayotgan har bir mutaxassis tirik tilning bir necha muammolariga duch keladi. Og‘zaki muomalaga bo‘lgan talab va ehtiyoj hozirgi paytdagidek hali hech bir yerda bu qadar chuqur his etilmagan edi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishning bu bosqichida, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalari insonlar o‘rtasidagi verbal kommunikatsiyaning turli tomonlariga katta ta’sir ko‘rsatdi; rivojlangan adabiy tillar mavjudligi va funksional butunligidagi yangi vaziyat paydo bo‘ldi. (1, 264). Mana shu yangi sharoitda o‘z kommunikativ aloqa vositasi bo‘lish xizmatini bajarayotgan tillardan biri bo‘lmish ingliz tili haqida fikr yutiradigan bo‘lsak, bu tilda shaxsning kundalik o‘zaro verbal muomala norasmiy-shaxsiy, ijtimoiy nutqiy murojaatlari va boshqa turli kommunikativ sohalarida ingliz tili juda keng istifoda etilmoqda. U faqat me‘yorlashgan adabiy til nutq shakllaridagina emas, balki shu bilan birga, verbal va noverbal muloqotning me‘yorlik darajasiga yetib rivojlanmagan shakllari ham muomala vositasi sifatida xizmat qilmoqda (2, 96). Ularning strukturaviy-funksional tomonlarini tahlil etmaslik, ingliz adabiy tilining so‘zlashuv nutqi sifatidagi resurslarini tasvirlash og‘zaki nutqshunoslikning dolzarb vazifalaridandir. Bular jumlasiga odatda MESE (Modern Educated Southern English), SECE (Standart Educated Colloquial, Informal English) kiradi (3, 112). Garchi bu Cockney yoki Slang nutqiga yoki Amerika variantida mavjud bo‘lgan. SWE (Southern White English) yoki Black English (AQSH qora tanli so‘zlovchilarining so‘zlashuv tili) va boshqalarga qiyoslasak, ularning adabiy so‘zlashuv tili bilan nostandart so‘zlashuv tillari o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan katta bir guruhni tashkil etadi (4, 34).

So‘zlashuv nutqini o‘rganmoqchi bo‘lgan har bir tadqiqotchi oldida muhim muammo turadi. Shunday izlanish ob‘yekti sifatida u qaysi quyi sinfni tanlashi kerak?

I jadval

Адабий-расмий сўзлашув нутқи	ARSN
Кундалик стандарт сўзлашув нутқи	KSSN
Субстандарт сўзлашув нутқи	SSN

Mavjud til vaziyatini tahlil qilmasak ham, mana shu uch katta qatlamni kuzatishga to'g'ri keladi.

Adabiy-rasmiy so'zlashuv nutqi ommaviy axborot vositalari bo'lmish radio, televedeniya, suxandonlar va dasturlarni olib boruvchilarning nutqi, rasmiy uchrashuvlar, konferensiya, simpozium va shu kabi yig'inlarda ishlatiladigan nutq shakllari shular jumlasidandir.

Kundalik standart so'zlashuv nutqi norasmiy vaziyatlarda so'zlovchilar tomonidan qo'llanilib, bundan jamiyatning aksariyat qismi foydalanadi.

Substandart so'zlashuv nutqi odatda jamiyatda savodsiz yoki ma'lumoti kam shaxslar tomonidan ishlatiladigan nutq shakli bo'lib, u yerda til informatsiyasining buzilishi bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bular jumlasiga til grammatik qurilishining buzilishi, sheva so'zlari va grammatik shakllari, so'zlar talaffuzining buzilishi, leksik tarkibda bo'ladigan me'yor buzilishlar va boshqalar kuzatiladi (1, 270).

Biz asosiy e'tiborni ikkinchi toifa, so'zlashuv nutqiga qaratamiz. So'zlashuv nutqining bu shakli ikki tomonga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

II jadval



Chizmadan ko'rinib turibdiki, KSSN bir tomondan normaning, ikkinchi tomondan nutq uzusining doimiy ta'sirini his etib turadi.

Hosil bo'lgan nutq vaziyat, mavjud turli omillar va me'yor bilan uzusning KSSNga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish, olingan til materiali va chiqarilgan ilmiy xulosalarning nazariy jihatdan umumlashtirish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muayyan bir vaqtni talab etadi.

Adabiy tilning mavjudlik shakllaridan biri sifatida so'zlashuv nutqi uning asosiy belgilarini o'zida saqlaydi:

- 1) shevalardan ustun turishi;
- 2) mustahkam sistemaga egaligi;
- 3) normativligi;
- 4) ko'p funksiyaliligi.

Ishlatilgan umumiy sleng (sheva) soʻzlar va boshqa leksik-frazeologik qatlam soʻzlovchilar tajribalarining tarkibiy qismi boʻlib, kommunikatsiyaning aniq bir maqsadga yoʻnaltirilganligini, bu maqsadga erishishlarini va eksplikatsiya 30-40% boʻlishi ham mumkin.

Propozision struktura tahlili tillardagi sodda va qoʻshma gapni semantik jihatdan tahlil qilishda katta ahamiyatga ega boʻlishi shubhasiz. Chunki bu yoʻnalish tomonidan ifoda etilayotgan holatga boʻlgan munosabatini tahlil etishda muhim bir bosqich boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. Nutq madaniyatining istiqlol davri muammolari. Istiqlol va til. -T: 2005, 264-270.
2. Mamatov A.E. Istoriya i teoriya yazыkovoy normы. – Shymkent. 2006, 96 c.
3. Aldridge J. The Last Inch. – In: Modern English Short Stories. Moscow, Foreign Languages Publishing House, 1961, 112 b.
4. Labov W. The logic of Non-Standard English. (A Handbook of Colloquial Usage) London. 1974, 34 b.